

Qutqaruv kuchlari xizmatini va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishni tashkil qilish Bosh boshqarmasining asosiy funksional vazifalari

Vazirning buyruqlari, direktivalari va farmoyishlari, vazir birinchi o‘rinbosarining buyruqnomalari va farmoyishlari asosida bosh boshqarmaga yuklatilgan vazifalarni bajarish bo‘yicha boshqarmalar faoliyatini nazorat qiladi;

Bosh boshqarmaga yuklatilgan vazifalarni bajarilishiga va sifatiga shaxsan javobgar hisoblanadi;

bosh boshqarma tarkibidagi boshqarmalar nizomlari hamda xodimlarning funksional vazifalarini ishlab chiqilishini va tasdiqlanishini tashkil etadi;

bosh boshqarma faoliyati bo‘yicha vazir, vazirning birinchi o‘rinbosariga tahliliy ma‘lumotlarni tayyorlanishini tashkil etadi;

vazir yoki vazir birinchi o‘rinbosarining topshirig‘i bo‘yicha joylarda davlat yoki xo‘jalik boshqaruv, davlat hokimiyati organlarida vazirlikka taalluqli masalalar yuzasidan vazirlikning vakili sifatida ishtirok etadi;

bosh boshqarma xodimlarini lavozimga tayinlash, o‘zgartirish va bo‘shatish, taqdirlash hamda mukofotlash, harbiy unvonga tafsia qilish, shartnoma asosidagi harbiy xizmatchilarni xizmatdan bo‘shatish bo‘yicha takliflar kiritadi, shuningdek, bosh boshqarmada xizmat intizomiga rioya qilinishini ta‘minlaydi;

bosh boshqarma tarkibidagi boshqarmalarning faoliyati davomida hamjihatlilikini ta‘minlaydi hamda vaziflarni belgilaydi;

o‘rnatilgan tartibda barcha turdagi qutqaruv xizmatlari bo‘linmalari va ularning shaxsiy tarkibini oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarishi bo‘yicha jangovar shayligini tekshiradi;

tarkibiy tuzilmalarning va qutqaruv xizmatlari rahbarlarining xizmat-jangovar faoliyatining holati bo‘yicha hisobotlarini tinglaydi;

bosh boshqarma tarkibini takomilashshtirish bo‘yicha vazirlik rahbariyatiga takliflar kiritadi;

shaxsiy tarkibning psixologik, ruxiy va ishlash sifatini, tarbiyasi va siyosiy yetukligini o‘rganadi;

bosh boshqarmaning faoliyati bo‘yicha axborot taxlil ma‘lumotlarni va ish rejasini ishlab chiqilishini ta‘minlaydi hamda vazirga va uning birinchi o‘rinbosariga tasdiqlash uchun kiritadi.

Vazir va uning birinchi o‘rinbosari tomonidan o‘tkaziladigan vazirlikning hay‘at yigilishlari va tezkor majlislarda ko‘rib chikish uchun taklif va masalalar kiritish;

vazirlik rahbariyatining topshirig‘i ko‘ra o‘z vakolatidan tashqari vazifalarni ham bajaradi.